


2019-yilning yanvar-noyabr oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3 trln. 922,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 108,2 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat - 10,3 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash - 4,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 4,1 % ga o'sishi hisoblanadi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (80,0 %) pasaydi.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 209,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,3 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan chaqiq tosh - 1,8 martaga, osh tuzi - 1,4 martaga, ko'mir qazib olish - 1,4 martaga ga oshdi, xom neft (96,6 %) pasaygan.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| 2018-yil yanvar-noyabrida ishlab chiqarilgan | Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari | 2019-yil yanvar-noyabrida ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|--|---|----------------------------------|
|---|--|---|----------------------------------|

Ko'mir, ming t.

159,0



217,5



136,8

Neft, ming t.

77,6



75,0



96,6

| 2018-yil yanvar- noyabrida ishlab chiqarilgan | Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari | 2019-yil yanvar- noyabrida ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|--|--|--|----------------------------------|
|--|--|--|----------------------------------|

Osh tuzi, ming t.

6,0



8,3

136,8



Qum, ming t.

33,3



44,7

134,2



Chaqiq tosh, ming t.

38,5






71,2

184,9



Neft qazib olish, ming t.



Ko'mir qazib olish, ming t.**Chaqiq tosh qazib olish, ming t.****Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 trln. 433,6 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 87,6 % ini tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi - 0,1 % ni (2018-yil yanvar-noyabr oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,4 % ni (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 24,2 % (23,0 %) ni va quyi texnologiyali - 62,8 % (63,9 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

2019 yil yanvar-noyabr



2018 yil yanvar-noyabr



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 39,0 % (2018-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish 115,0 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 29,3 % (102,1 %) ni, mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 6,8 % (113,7 %) ni, yog`och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog`oz va qog`oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarish - 3,1 % (104,7 %) ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,4 % (102,2 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda bir qavatli ip (tikuv iplaridan tashqari) - 4,6 martaga, boshqa ip gazlamalar - 4,5 martaga, qurilish uchun qorishmalar va aralashmalar - 3,1 martaga, quyish uchun tayyor beton - 1,5 martaga, osh tuzi - 1,4 martaga va un - 19,3 % ga oshdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| 2018-yil yanvar-noyabrida ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-noyabrida ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| Paxta tolasi, ming t. | | | |
| 56,8 |  | 11,8 | 20,7  |
| Tozalangan kungaboqar yoki masxar yog'i, ming t. | | | |
| 0,0 |  | 141,0 | -  |
| Un, ming t. | | | |
| 91,7 |  | 109,4 | 119,3  |
| Aroq, ming l. | | | |
| 1831,1 |  | 1525,8 | 83,3  |
| Dizel yoqilg'isi, ming t. | | | |
| 10,6 |  | 9,1 | 86,1  |



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 219,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,6 % ni) tashkil etdi.


2019-yilning yanvar-noyabrida sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yoqilg'l ishlab chiqarish va taqsimlash o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,8 foizga oshganligi kuzatildi. Elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash (75,9 %) kamaydi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| 2018-yil yanvar-noyabrida ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-noyabrida ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|--|---|--|-------------------|
|--|---|--|-------------------|

Elektroenergiya, mln.kVt/s

0,0



2,8

-



Issiqlik energiyasi, ming Gkal

65,6



58,8

89,5



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 60,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar 1,9 martaga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 1,9 martaga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 1,6 martaga, xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 1,6 martaga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari - 27,6 % ga, elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar 27,8 % ga oshganligi, tarkibida qora metallar bo'lган ikkilamchi xom ashyo (ikkilamchi xom ashyo materiallari) (72,1 %) kamayganligi kuzatildi.

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| 2018-yil yanvar-noyabrida ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-noyabrida ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|--|---|----------------------|
|---|--|---|----------------------|

Tarkibida qora metallar bo'lган ikkilamchi xom ashyo, ming tonna

12,5



9,0

72,1



**Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish
bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm**

1,8



3,5


189,3



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1476,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 11,1 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 37,7 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati



2018-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 46,9 % dan 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida 51,8 % ga oshdi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 53,1 % dan 48,2 % ga pasayganligi kuzatildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 5,2 % ni (2018 yil yanvar-noyabr oylarida 7,4 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati**


| | Mlrd.so'm | Jamiga nisbatan ulushi, % | 2018 yil yanvar-noyabrga nisbatan o'sish, % |
|-----------------------------|---------------|---------------------------|---|
| Surxondaryo viloyati | 1476,7 | 100,0 | 111,1 |
| Termiz sh. | 265,9 | 18,0 | 108,8 |
| tumanlar: | | | |
| Angor | 49,9 | 3,4 | 111,6 |
| Boysun | 47,0 | 3,2 | 112,3 |
| Denov | 299,4 | 20,3 | 106,7 |
| Jarqo'rg'on | 110,8 | 7,5 | 110,7 |
| Qumqo'rg'on | 54,7 | 3,7 | 114,6 |
| Qiziriq | 40,1 | 2,7 | 119,3 |
| Muzrabot | 30,9 | 2,1 | 113,5 |
| Oltinsoy | 62,7 | 4,3 | 116,6 |
| Sariosiyo | 79,8 | 5,4 | 111,2 |
| Termiz | 97,9 | 6,6 | 108,9 |
| Uzun | 53,2 | 3,6 | 112,6 |
| Sherobod | 83,3 | 5,6 | 97,1 |
| Sho'rchi | 201,1 | 13,6 | 125,1 |

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 720,7 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 18,4 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barchasi ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) korxonalar tomonidan amalga oshirildi.


Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 19,3 %), Jarqo'rg'on (21,7 %), Denov (12,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

| | Mlrd.so'm | 2018 yil yanvar-noyabrga nisbatan o'sish, % |
|-----------------------------|---------------|---|
| Surxondaryo viloyati | 3922,1 | 108,2 |
| Termiz sh. | 756,2 | 122,2 |
| tumanlar: | | |
| Angor | 104,3 | 107,0 |
| Boysun | 72,4 | 109,9 |
| Denov | 506,1 | 107,3 |
| Jarqo'rg'on | 849,7 | 114,9 |
| Qumqo'rg'on | 183,4 | 99,4 |
| Qiziriq | 88,4 | 95,8 |
| Muzrabot | 77,9 | 106,3 |
| Oltinsoy | 77,8 | 109,9 |
| Sariosiyo | 317,5 | 108,7 |
| Termiz | 129,1 | 104,6 |
| Uzun | 114,6 | 94,1 |
| Sherobod | 292,9 | 193,4 |
| Sho'rchi | 351,8 | 98,8 |

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi**




Surxondaryo viloyati ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora tadbirlar natijasida, Sherobod (2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 193,4 %), Jarqo'rg'on (114,9 %), Oltinsoy (109,9 %) tumanlarida sezilarli darajada sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, iste'mol tovarlari hajmini Sho'rchi (2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 125,1 %), Qiziriq (119,3 %), Oltinsoy (116,6 %), Qumqo'rg'on (114,6 %) va Muzrabot (113,5 %), Uzun (112,6 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'sishi ko'rsatkichlari



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Termiz shahrida (5196,4 ming so'm), Jarqo'rg'on (3954,4 ming so'm), Sho'rchi (1713,8 ming so'm), Sariosyo (1561,3 ming so'm), Sherobod (1538,2 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 569,9 ming so'm bo'lgan holda, Termiz shahrida - 1827,5 ming so'mni, Sho'rchi tumanida - 979,9 ming so'mni, Termiz tumanida - 907,9 ming so'mni va Denov tumanida - 790,1 ming so'mni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so'm


| | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol tovarlari |
|-----------------------------|---------------------|--------------------|
| Surxondaryo viloyati | 1513,7 | 569,9 |
| Termiz sh. | 5196,4 | 1827,5 |
| tumanlar: | | |
| Angor | 798,5 | 382,2 |
| Boysun | 612,3 | 397,5 |
| Denov | 1335,7 | 790,1 |
| Jarqo'rg'on | 3954,4 | 515,8 |
| Qumqo'rg'on | 764,0 | 227,9 |
| Qiziriq | 517,1 | 234,4 |
| Muzrabot | 558,3 | 221,4 |
| Oltinsoy | 447,7 | 360,8 |
| Sariosiyo | 1561,3 | 392,4 |
| Termiz | 1197,9 | 907,9 |
| Uzun | 667,1 | 309,6 |
| Sherobod | 1538,2 | 437,4 |
| Sho'rchi | 1713,8 | 979,9 |

Shu bilan birga, iste'mol tovarlarining eng katta ulushi Denov tumaniga (viloyat iste'mol tovarlarining 20,3 %), Termiz shahriga (18,0 %) va Sho'rchi (13,6 %) tumaniga to'g'ri keldi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Hisobot davrida kichik tadbirdorlik sub'ektlari tomonidan 2101,0 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 53,6 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirdorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy, Boysun (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Uzun (99,0 %), Qiziriq (93,4 %), Termiz (89,7 %) va Angor (82,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Sherobod (28,3 %), Jarqo'rg'on (36,8 %), Sho'rchi (40,0 %) tumanlari va Termiz shahrida (36,5 %) kuzatildi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 2630 ta korxona faoliyat yuritmoqda, shundan 566 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 21,5 %) Termiz shahriga va 298 tasi (11,3 %) Denov tumaniga, 186 tasi (7,1 %) Termiz tumaniga va 183 tasi (7,0 %) Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1 dekabr holatiga)



2019-yil yanvar-noyabr oylarida viloyatda 892 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 20,2 foizi Termiz shahri, 13,5 foizi Denov tumaniga va 7,3 % Termiz tumaniga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2019-yil 1 dekabr holatiga)**



Sanoat statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (76) 223-07-24